

KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINI YURITISH STATISTIKASI

Abdushukurova Shahnoza

Guliston Davlar Universiteti talabasi

To'ychiyeva Madinabonu

Guliston Davlar Universiteti talabasi

Islomova Madina

Guliston Davlar Universiteti talabasi

Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik tadbirkorlik faoliyatini yuritish statistikasini tahlil qilish, amaliyotda bandlik bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi kichik korxonalar mikrofirmalar tashkil etish kuzatuvlari va natijalar tahlili yoritilgan

Kalit sozlar: Tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, kichik korxonalar, mikrofirmalar, yakka tartibdagi tadbirkorlik kichik tadbirkorlik sub'ektlari.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113 son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbliligi va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya Vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bir xillashtirildi.

Tahlil va natijalar.

2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar 418.7 mingtani tashkil etadi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni har 1000 aholiga 14.1 birlikni tashkil etib bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 3.6 birlikka kamaygan. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sonining har 1000 aholiga nisbati 2 eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 28.6 birlik, Navoiy viloyatida 21.5 birlik, Sirdaryo viloyatida 17.5 birlik, Jizzax viloyatida 16.9 birlik va Buxoro viloyatida 16.3 birlikka yetdi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 58.2 birlik, Tomdi tumanida 52.5 birlik, Miroybod tumanida 47.9 birlik, Qorovulbozor tumanida 44.4 birlik, Gozg'on shahri 42.3 birlik, Bektemir tumanida 41.9 birlik Chilonzor tumanida 37.7 birlik kuzatildi.

2023-yil yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbati eng ko'p ulushi Toshkent shahri-18.3%, Farg'ona viloyati-9.3%, Samarqand viloyati-9.2% Toshkent viloyati-7.9%, Xorazm



viloyati-7.5%, Qoraqalpog'iston Respublikasi-7.3% Qashqadaryo viloyati-7.3% hissalariga to'g'ri keladi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 26 156 ta sanoatda 11 311 ta va boshqa xizmatlarda 7 771 ta qishloq va o'rmon baliqchilik xo'jaligida 7 598 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4 436 tani tashkil etadi .

2023 yil yanvar-sentabrda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik ulushi 25.9% ni tashkil etadi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlari eng yuqori ulushi Surxandaryo viloyati 48.1%, Namangan viloyati 46.6 %, Samarqand viloyati 43.8%, Toshkent shahri 39.8 % ga tog'ri keladi.

2023 yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik xizmatlar sohasidagi hajmi 155 200.8 milliard so'm yoki umumiy hajmning 47.2%ini tashkil qiladi. O'sish sur'ati 2022 yilga nisbatan 105.3% ni tashkil qiladi

YaIM tarkibidagi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 51.2% ni tashkil etadi. 2022 yilning tegishli davriga nisbatan 0.7 punktga kamaygan. Kamayishning asosiy sababi yirik tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shilgan qiymat hajmining o'sishi hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 27.12.2022
2. Yakubov I.O., G'oyibnazarov B.K., Abdusattorova X.M., Ochilov K.T. Balans muammolari, O'quv qo'llanma O'z PYOUJ nashriyoti T. 200437-49.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <http://www.worldbank.org>.
4. N. Ibragimova «Тенденции и приоритеты повышения уровня жизни населения. «Bozor, pul va kredit» jurnali, №9, 2018 y



5. Turayeva, G., Mamatkosimova, M., Bo'ribekova, O., Jamoliddinova, N., Karimov, R., Kenjayeva, X., ... & Nurqulov, R. (2022). IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BIRJA MEXNIZMLARIDAN FOYDALANISH. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(7), 165-168.
6. Gulizahro, T., Jo'rayeva, N., Diyora, H., Oydin, A., Nilufar, R., & Nozima, R. (2023). Korxonalarda pul mablag'lari hisobini takomillashtirish. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 951-954.
7. Turayeva, G., Sherxonov, A., Abduhalilov, A., Xusanov, X., & Rahmonqulov, H. (2023). SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR TASNIFI, TURLARI HAMDA HISOBGA OLISH VAZIFALARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(14), 46-48.
8. Gulizahro, T., Mamlakat, D., Sarvinoz, A., & Sabina, J. (2023). AGROSANOAT MAJMUASINING RAQAMLI PLATFORMALARINI RIVOJLANTIRISH. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(11), 49-54.
9. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. *TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR)*, 6(1), 45-53.
10. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. *Экономика и инновационные технологии*, (1), 43-50.
11. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
12. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In *Doklady Akademii Nauk* (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
13. Xolmanova, Z. (2020). *Kompyuter lingvistikasi*. Nodirabegim:.-Toshkent, 247.
14. Akbarova, N., & Azamatov, Z. (2023). Deformation measurement by digital holographic interferometry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 434, p. 01039). EDP Sciences.
15. Xolmanova, Z. (2022). *Omonimlar–tafakkur omili*. Uzbekistan: Language and Culture, 1(1).